



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI

RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Abishov Muxammed Sarsenbaevich¹ Najimova Aydana G'ayratovna² Kallibekov
Allabergen Sapparbaevich³

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti dotsenti¹

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti²

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi³

INFO:

Qabul qilindi: 25.02.2022

Ko'rib chiqildi: 26.02.2022

Chop etildi: 26.02.2022

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi,
ishchi kuchi, bandlik, yer,
hosildorlik, chorvachilik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy tarmoqlari va imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek agrar sohada yuzaga kelayotgan muammolar va ularni barataf qilishga yo'naltirilgan takliflar berilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning pirovard natijasi har bir insonga moddiy va ma'naviy turmush imkoniyatlarini ta'minlash, uning daromadlari darajasini oshirishga qaratilgan. Bu maqsad esa barqaror rivojlanuvchi iqtisodiyotni shakllantirish orqali amalga oshirish mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda va izchil ravishda tadbir etilmoqda. Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ishchi kuchi bandligi ham muhim o'rin tutadi. Mamlakatda bandlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning iqtisodiyoti barqarorligi ham shu qadar yuqori bo'ladi. Shuning uchun respublikamizdagi

iqtisodiy islohotlarning tarkibida ishchi kuchi bandligi darajasini oshirishga imkon yaratuvchi tadbirlar ham salmoqli o'rin tutadi [1].

Qoraqalpog'iston Respublikasida yalpi mahsulot strukturasi qishloq xo'jaligi ulushi (o'rmon va baliq xo'jaligi bilan birga) 28,8 % ga yaqinni, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini hisobga olsak undan ham ko'proq tashkil etadi.

Qishloq aholisi 51 % ni tashkil etadi (952,2 ming kishi), shundan 26,3 % moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band. Barcha 15 ta tumanda qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining umumiy yer maydoni 167,1 km² ni tashkil etadi, bu O'zbekiston Respublikasi maydonining 37 foiziga yaqinidan iborat. Qishloq xo'jaligiga 2,8 mln gektar yer maydoni birlashtirilgan va undan foydalanilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlari qishloq xo'jaligi va chorvachilik. Asosan g'oz, sholi va bug'doy ekinlari ekiladi va ularning ekin maydoni 250-300 ming gektarni tashkil etadi. Ozuqa ekinlari, donli ekinlar, sabzovot va poliz ekinlari, ya'ni makkajo'xori, oq jo'xori, sudan o'ti, tariq, javdar, suli, beda, kungaboqar, kartoshka, piyoz, baqlajan, garmdori, bodring, tarvuz, qovun, loviya, mosh, yalpiz va hokozolar yetishtiriladi. Beda urug'i asosan eksport uchun yetishtiriladi va u o'ta rentabelli hisoblanadi. Chorvachilik uchun ekin maydonlari, pichanzorlar va yaylovlar umumiy yer fondining 22 % ni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda Qoraqalpog'iston Respublikasida 563,2 ming gektar qishloq xo'jaligi yerlari mavjud bo'lib, shundan ekin maydoni 291 ming gektarni tashkil etadi. Ularga ishlov beruvchi 5978 ta fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatadi. Shundan paxtachilik-g'allachilikka ixtisoslashgan fermerlar 259 ming gektar, g'allachilikka ixtisoslashganlari 2333 gektar, bog'dorchilikda 2838 gektar ekin maydonlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladilar.

Ta'kidlash joizki, Qoraqalpog'iston Respublikasida 31244 gektar aholi tomorqalari mavjud bo'lib, 11132 gektariga takroriy ekin ekish, 53 ming gektar g'alladan bo'shaydigan yerlarning 20600 gektariga ham takroriy ekinlar ekish ko'zda tutilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasida umumiy qiymati 490 mlrd so'mlik 236 ta chorvachilik sohasidagi loyihalar shakllantirilgan, bugungi kunda 119,6 mlrd so'mlik 94 ta loyihalar amalga oshirilgan hamda Qo'ng'iroq, Bo'zatov, Mo'ynoq va Taxtako'pir tumanlarida 5,5 ming bosh qoramolga mo'ljallangan oilaviy chorvachilik kooperatsiyalari tashkil qilish bo'yicha ishlar boshlangan [3].

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida yetishtirilayotgan mahsulotlarning miqdori umumiy mahsulotlarning tahminan uchdan ikkita qismini tashkil etadi va bozorni yegulik-ichgulik mahsulotlari bilan to'ldirish, sanoatni xomashyo bilan tamiynlashni bundan keyin ham yaxshilash katta ahamiyatga ega. Buning uchun tashkil etish, sohalarni optimallashtirish, agrotexnik, texnik-texnologik, iqtisodiy v.h. yo'nalishlarda ilmiy asoslangan ilojlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur.

Bu yo'nalishlardagi ilmiy-taqribiy yumushlar bor bo'lgan imkoniyot va mumkinchiliklardan to'liq va sifatli foydalanish, ilm-fan yutuqlari va avvalgi tajriybalarni hayotda oshirish, yumush vaqtdan to'liq foydalanish, yerning har bitta gektarini, ishlab chiqarish vositalari va materiallarini mulkiy nisbatlarin amalda qo'llash asosida olib borilishi zarur [2].

Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lganligi sababli sug'orma yerlarning hosildorligin bundan keyin ham yuqorilatish uchun, ayniqsa hozirgi paytda suvdan durust foydalanish katta ahamiyatga ega. Buning uchun yerning meliorativ sharayotin yaxshilash choralarina e'tibor

qaratish kerakligi zarur, ya'ni:

- kollektor-drenaj tarmoqlarini o'z vaqtida sifatli tozalash va rekonstruksiyalash;
- namiqqan suvlarni ketiradigan yangi magistral va xo'jaliklararo kollektorlar qazish, faoliyat yuritayotganlarini rekonstruksiya qilish;
- har bitta yer uchastkasining hajmin, rel'efin, sho'rланish darajisini hisobga olib qisqartirish choralarin (chayib sug'orishlik) amalga oshirishlik;
- qishloq xo'jaligi ekinlarining vegetaciya davrida agrotexnik ilojlarini o'z vaqtida olib borishni tashkil etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida olib borilgan ishlar natijasida:

- sug'oriladigan yerlarda yer osti suvlari sathi va sho'rланish darajasi pasayib, ekin maydonlarining meliorativ holati yaqshilanmoqda;
- xo'jaliklarni suv bilan ta'minlash yaxshilanib borilmoqda;
- qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi ortib, xo'jaliklarning daromadlari ko'paymoqda.

Takliflar:

- kelgusida ajratilgan mablag'larni maqsadli foydalanishini nazoratga olish;
- yomg'ir, qor va boshqa mavjud suv resurslaridan samarali va tejimli foydalanish uchun qurilish materiallaridan, melioratsiyalashda foydalaniladigan texnika vositalarini ishlatish faoliyatini oshirishda modernizatsiyani kengroq qo'llash;
- qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishda sug'orishda qo'llaniladigan yangi texnologiyalarga e'tiborni qaratish va joriy etishni jadallashtirish.

Shuning uchun yerning hosildorligiga – ilmiy asoslangan almashlab ekish; ku'zgi surim va terangligi; tuqimchilik madaniyati, ya'ni shimoliy mintaqa sharoitga to'g'ri keladigan tez pishar, suvni oz taqozo etadigan, hosildorli, kasalliklarga chidamli navlarin tanlov va joriy etish hosildorlikni yuqorilatishdagi asosiy yo'nalish demakdir.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligining va chorva mollarining hosildorligin yuqorilatish uchun ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishning samaradorligin orttirish zarur. Har bitta ekin turi bo'yicha mehnat mablag'larini kamaytirish, buning uchun investiciya mablag'larin ko'paytirmoq, yerning meliorativ holatlarin yaxshilash, mexanizaciyani kengaytirishni amalga oshirish zarur.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun yem-xashak yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda yem-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta'minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda organik va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan to'yimli ozuqa moddalari talab darajasida olinishini, chorva mollariga shakllangan ozuqa ratsion asosida vaqtida berilishini ham tashkil etish zarur. Bu masalaning dolzarbligini e'tiborga olib, respublika hukumati xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish yo'llarini, mexanizmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, shu maqsadda chetdan moddiy-texnika resurslari keltirilsa, ular bojxona to'lovlaridan ozod etilishi va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Respublika agrar sektorida iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda mintaqaning o'ziga xos hususiyatlari va salohiyatidan samarali foydalanishga salbiy

ta'sir ko'rsatayotgan ayrim kamchilik va muammolar mavjud. Qabul qilingan qonun va qarorlarni quyidagi bo'g'nlarda bajarilishini ta'minlash yuzasidan doimiy samarali monitoring olib borilmayapti. Fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnomalarda belgilangan majburiyatlar va shartlarni bajarmaslik holatlariga yo'l qo'yilmoqda. Vaholanki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida shartnomaviy munosabatlar xo'jalik sub'ektlarining iqtisodiy ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarishning asosini tashkil etadi. Mazkur muammolar tufayli qishloq xo'jaligi sub'ektlari faoliyatida moddiy manfaatdorlik mexanizmi to'liq yaratilmagan [5].

Ta'kidlangan barcha masalalarning ijobiy hal etilishi tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarning munosabatlariga, bilimiga, tajribasiga, e'tiqodiga, ongiga hamda rag'batlantirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, bu masalalarni hal etish mexanizmlarini, yo'llarini yanada rivojlantirish zarur.

Qishloq xo'jaligining samarador rivoji xo'jaliqlarning zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlanganlik darajasiga bo'g'liq. Lekin ularning sotilish baholari o'sishi mahsulotlarning sotilish bahosining o'sish darajasidan yuqori bo'lishiga aloqador mexanizmiyalashni ko'tarish qiyinchilikka uchiromoqta, ya'ni baholarning paritet patent indeksi sanoat mahsulotlari baholari foydasiga echilmoqta. Shuning uchun baholarning paritet indeksini tenglashtirish choralari amalga oshirishlik lozim. Buning uchun har bitta mahsulot birligiga ishlatiladigan sarf-xarajatlarning miqdorini kamaytirish yo'llarini izlash; moddiy-texnik resurslarning baholarining ko'tarilishini hisobga olgan holda rentabellik darajasini belgilash zarur.

Shuning uchun qishloq xo'jaligi sohasida mablag'larini kamaytiradigan va rentabellik darajasini yuqorilatadigan quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor berishimiz zarur:

-resurslarni tejash va mahsulotlarni yetishtirishning ekstensiv yo'llaridan intensiv yo'lga o'tishlik;

-mehnat, material va energetika resurslaridan, mintaqa sharoitiga to'g'ri keladigan qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini, chorva mollari va qushshilik unumdorligining biologik salohiyatidan yanada samarador foydalanish;

-qishloq xo'jaligi ekinlari navlarining hususiyatlariga qarab chiqib ularni kam xarajat sarflab ko'p mahsulot olish imkonini beradigan optimal agro tumanlarga joylashtirish;

Shuningdek, qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari baholarining nisbatin tartibga solish va yuqorida zikr etilgan muommolarni yechish qishloq xo'jaligida kengaytirilgan ishlab chiqarishni amalga oshirish, umumiy agrar-sanoat kompleksining rivojlantirishga olib keladi.

Bozor munosabatlari holatida agrar sohani rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'p, arzon va sifatli yetishtirish uchun ilmiy tadqiqotga asoslangan holda tashkil etish – iqtisodiy ilojlarni va boshqaruvning hozirgi sharoitiga javob beradigan usullarini qo'llash kerak.

Shu bilan birga qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlarining ko'p foyda beradigan optimal tarkibini, ishlab chiqarish mahsulotlarining hajmi va ularga ishlatiladigan mehnat, yer va suvlar, material-texnika va boshqada resurslarning optimal tarkibi va miqdorini, hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ilmiy-tadqiqot izlanishlar olib borish eng asosiy dolzarb masala demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги “2019-2021 йилларда

- Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
- Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 июлдаги “Илмий ва илмий-техникавий фаолият натижаларини тижоратлаштириш самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3855-сонли қарори.
 - <https://stat.uz/uz/>-Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг маълумотлари.
 - Qoraqalpog'iston Respublikasining statistik axborotnomasi (2016-2017-2018-2019 yillar).
 - Камилова М.Х. Развитие государственно-частного партнерства в инновационной политике Республики Узбекистан. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журналі. №2, 2017 йил. www.sharqjurnali.uz